

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## “QUTADG‘U BILIG” ASARINING O‘RGANILISHI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI”

Asal Orazbaeva

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 2-bosqich talabasi  
asalorazbaeva118@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turkiy xalqlar adabiyotining yirik namoyondalaridan biri ulug‘ mutafakkir shoir va davlat arbobi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ustida olib borilgan izlanishlar va asarning bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** mutaqorib, falsafiy qarash, folklor, transkripsiya, tabdil

Yusuf Xos Hojib hayoti va faoliyati haqida juda oz ma’lumot saqlanib qolgan. Aniqrog‘i, uning hayot yo‘li haqidagi ma’lumotlar uning o‘z asari – “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”)dagi ayrim ishoralar asosida ma’lum tasavvurlar hosil qilish mumkin.

“Qutadg‘u bilig” Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan, turkiy xalqlarning o‘rta asrlardagi muhim madaniy va ilmiy merosi sanaladi. Ushbu asar, odatda, davlat boshqaruvi, axloqiy qadriyatlar va adolat haqida falsafiy o‘g‘itlarni o‘z ichiga oladi. Yusuf Xos Hojib ushbu asarni Qoraxoniylar davlatining hukmdori uchun pandnoma sifatida yozgan. Aniqrog‘i Yusuf Xos Hojib o‘z asarini Qoraxoniylar hukmdorlaridan bo‘lgan Tabg‘ach Bug‘raxonga taqdim etadi. Keyin hukmdor uni ulug‘lab “Xos Hojib” (mukarram, eshik og‘asi) unvonini beradi. Shundan so‘ng Yusuf Xos Hojib nomi bilan taniladi.

Yusuf Xos Hojibning hayoti hamda “Qutadg‘u bilig” dostoni A.Vamberi, Morik, V.Radlov, A.Bombachi, S.E.Malov, V.V.Bartold, A.Samaylovich, N.A.Yudahin, N.A.Baskakov, A.N.Kononov, E.R.Teneshev, A.Valitova, I.V.Stebleva, S.N.Ivanov, M.F.Kuprulizoda, Rashid Rahmati Arat, Fitrat, Q.Karimov, B.To‘xliyev, Z.Sodiqov singari yirik olimlar tomonidan puxta o‘rganilgan.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonini akademik tarzda batafsil o‘rgangan, shuningdek, bolalarbop variantini yaratgan olim B.To‘xliyevdir. [1]

Yuqorida sanab o‘tilgan olimlardan E.R.Teneshev va A.Valitova asarning folklor bilan munosabatini, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini, I.V.Stebleva birinchilardan bo‘lib asarning mutaqorib bahrida yozilganligini aniqlagan. Rashid Rahmati Arat esa 1947-yilda asarning uchta nusxasi asosida ularning turk tilidagi mukammal tabdilini yaratgan.

O‘zbekistonda “Qutadg‘u bilig”ga oid ilk ishlarni A.Fitrat boshlab berdi. Olim uning ayrim parchalarini “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1926) kitobida nashr ettirdi. S.Mutallibov, G‘.Abdurahmonov, N.Nallayevlar ham A.Fitrat an’anasini

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

davom ettirdilar. 1971-yilda “Qutadg‘u bilig”ni transkripsiya va hozirgi o‘zbek tiliga tabdili bilan Q.Karimov nashr qildirdi. Yana “O‘zbek adabiyoti bo‘stoni” turkumida “Qadimiy hikmatlar” kitobi tarkibida “Qutadg‘u bilig”ning kattagina qismi (G‘.G‘ulom nomidagi ASN, -Toshkent: 1987. 89-413-betlar) nasriy bayonda o‘quvchilarga taqdim etildi. Bu dostonni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish hamda nashr ishlari davom ettirilmoqda.

“Qutadg‘u bilig” haqida so‘z yuritilgan asarlarda uning mavzu qamrovi va ifoda tarzi haqida fikrlar bayon qilingan. Najib Osimbek: “Qutadg‘u bilig” mavzu e’tiborila “Siyosatnoma”ning aynidir. Turk avzoining mashhuri o‘lan o‘n birli vaznda va tarzi masnaviyda yozilmish o‘lan bu asari nafis beshinchi asri hijriyidagi turk jamoatining haqiqiy bir tasvirini, afkori ma’naviya va siyosiyasini go‘stariyur”, desa, H.Tavfiq, M.Ehson, H.Oliylar o‘zlarining “Turk adabiyoti namunalari”da uning masnaviy shaklda yozilganligini qayd qilish bilan cheklanishadi. Shu xil fikrlarni boshqa ko‘plab tadqiqotlarda ham ko‘rish mumkin.

“Qutadg‘u bilig” asarining uch nusxasi mavjud: Qohira, Namangan va Vena nusxalari. Afsuski har uchala nusxa ham mukammal emas. Qo‘lyozmalarda xattotlarning sahv-xatolari ko‘p. Masalan, yo‘l qo‘yilgan xatolar tufayli Namangan nusxasi 6095 bayt, Qohira nusxasi 5400 bayt, Vena nusxasi esa butunlay mukammal bo‘lib qolgan. Buning ustiga “Qutadg‘u bilig” asari ustidagi tadqiqotlar behad kechikib, faqatgina XX asrga kelib asar haqida izlanishlar olib borila boshlandi.

XI asrda shunday asar yozilgani haqidagi ilk xabar bizning matbuotda 1914-yili e’lon qilindi. Oradan o‘n yil o‘tgach, Abdurauf Fitrat dostonning Namangan nusxasini qo‘lga kiritdi va ma’lum izohlar bilan asardan parcha e’lon qildi. Oradan yigirma yil o‘tgach, bu ishga turk olimi Rashid Rahmati Arat qo‘l urdi. U “Qutadg‘u bilig”ning mavjud uchala nusxasini solishtirib, nomukammalliklar o‘rnini to‘ldirdi va 1947-yili dostonning nasriy bayonini chop ettirdi. Keyinchalik nisbatan mukammal nazmiy nusxasini tayyorlab, nashr qildirdi va uni hozirgi usmonli turk tiliga tarjima qildi. Shuningdek asar mundarijasiga tartib berdi. Ma’lumki, bizgacha yetib kelgan barcha nusxalarida mundarija yo‘q. Bundan tashqari Rashid Rahmati Aratning katta xizmatlaridan biri shu bo‘ldiki, u Yusuf Xos Hojibning yoshlikka achinib, keksalik haqida aytganlarini, zamonning buziqligi va do‘stlarning jafosi to‘g‘risidagi fikrlarni, kitob muallif Yusuf Xos Hojibning o‘ziga nasihatini alohida qism qilib asarga kiritdi.

“Qutadg‘u bilig” (“Baxt – saodatga eltuvchi bilim”) asari 1069 -1070 – yillarda yozib tugatilgan. Asarni yozish uchun muallif o‘n sakkiz oy vaqt sarflagan. Asar turkiy adabiyotdagi ilk yirik, aruzda bitilgan badiiy doston. Doston, asosan, masnaviy shaklida yozilgan bo‘lishiga qaramay, yana murabba’, ruboiy, qasida kabi janrlarga

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

mansub namunalar ham mavjud. Ma’lumki, qoraxoniylar hukmronligi davrida turkiy til so‘zlashuv, ilm – fan, badiiy ijod tili sifatida joriy qilingan. Shoirning o‘zi ham “Men turkcha so‘zlarni yovvoyi tog‘ kiyigi singari deb bildim, shunga qaramay, ularni avaylab – asrab qo‘lga o‘rgatdim”, deya yozadi. Bu davrda turkiy tilning mavqei va “Qutadg‘u bilig” dostonining nafaqat adabiy asar, balki o‘sha davr uchun ijtimoiy – ma’naviy qomus bo‘lganligini quyidagi satrlardan bilib olsa bo‘ladi:

Har bir kent qishloq, shahar, o‘rda, saroyda,

Kitobga boshqacha ot qo‘yganlar.

Chinliklar “Adab ul – mulk” deb aytadilar.

Mochinlikla esa “Anis ul – mamolik” ataydilar.

Bu Mashriq elida ulug‘lar buni,

Eronliklar buni “Shohnoma” deydilar.

Turonliklar “Qutadg‘u bilig” deb anglaydilar.

Ushbu satrlar orqali shuni anglash mumkinki, “Qutadg‘u bilig” nafaqat turon zaminda, balki chin – mochinida ham ma’lum va mashhur bo‘lgan. Lekin shunisi ham e’tiborliki, asar har joyda har xil nomlangan bo‘lishiga qaramasdan, barchasida mamlakatni boshqarish bo‘yicha hukmdorlarga odob – axloq, pand – nasihat mazmuni asarga singdirilgani asar nomidan ham sezilib turadi.

“Qutadg‘u bilig” dostoning mazmuniga ahamiyat berilsa, asar ramziylikka juda boy hisoblanadi. Asardagi to‘rt qahramon ideal orzu timsoli sifatida tasvirlanadi. Kuntug‘di – adolat timsoli, hukumat boshqaruvining o‘zagini tashkil etadi, Oyto‘ldi – baxt va davlat timsoli, jamiyatdagi farovonlik va taraqqiyotning muhim elementi, O‘gdulmish – aql, donolik va mulohhazakorlik, jamiyatni boshqarishda hal qiluvchi omil, O‘zg‘urmish – ofiyat, qanoat timsoli. Bu obrazlar birgalikda jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan asosiy tamoyillarni ifodalaydi. Bular o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan savol-javob, munozaralar jarayonida avom xalqdan tortib saltanatning eng oliy darajali hokimi – eliggacha bo‘lgan oraliqdagi barcha tabaqa va toifalarning axloq, odob, xatti – harakat, munosabat chegaralari haqida bahs boradi. Kuntug‘di davlat boshqaruvida Oyto‘ldining maslahatlariga amal qiladi, shu bilan birga uning o‘zi ham adolatli podshoh edi. U davlat boshqaruvida bir nechta tamoyillarga amal qiladi:

Hukmdor o‘z fuqarolarining ehtiyojlarini tushunishi va ularni adolat bilan boshqarishi lozim;

Davlatni barqaror saqlash uchun iqtisodiy, siyosiy va axloqiy tamoyillarni uyg‘unlashtirish zarur;

Qonun ustuvorligi asosiy shart sifatida belgilangan;

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Bu qarashlar zamonaviy boshqaruv nazariyalari bilan bog‘liq va global miqyosda dolzarbligi bugungi kunda ham muhim va zaruriy omillar sifatida qaraladi.

Personajlar o‘rtasidagi muloqot asarning asosiy mazmunini ochib beradi. Masalan, Kuntug‘di va O‘zg‘urmishning suhbatlari adolat va donolikning davlat boshqaruvida qanday uyg‘un bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi.

"Qutadg'u bilig" asarining tarbiyaviy ahamiyati

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari o‘z davrining buyuk ma’naviy-ma’rifiy asarlaridan biri bo‘lib, uning tarbiyaviy ahamiyati juda yuqori. Ushbu asarda davlat boshqaruvi, odob-axloq, ilm-ma’rifat va jamiyat taraqqiyotiga oid ko‘plab ibratli fikrlar bayon etilgan. Asarning tarbiyaviy ahamiyatini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin:

Axloqiy tarbiya

Asarda insonning to‘g‘ri yo‘lda bo‘lishi, halollik, rostgo‘ylik, adolat va mehnatsevarlik kabi fazilatlar yuksak qadrlanadi. Yusuf Xos Hojibning fikricha, odobli va adolatli inson jamiyatning gullab-yashnashiga xizmat qiladi.

Ilm-ma’rifatning ahamiyati

"Qutadg'u bilig"da ilmning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Muallif inson hayotida bilim va donolikni bosh omil sifatida ko‘rsatadi. Bu jihat hozirgi kunda ham yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Davlat boshqaruvi saboqlari

Asarda hukmdor va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar, adolatli boshqaruv va mas’uliyat haqida batafsil so‘z yuritiladi. Bu nafaqat siyosiy, balki fuqarolik tarbiyasida ham muhim o‘rin tutadi.

Oila va jamiyat tarbiyasi

Oila a’zolarining bir-biriga bo‘lgan hurmati, jamiyatda uyg‘unlik va hamjihatlik muhim fazilat sifatida ko‘rsatilgan. Ushbu o‘g‘itlar hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan.

Insonparvarlik va ezgulik targ‘ibi

Asar insonparvarlik, bir-biriga yordam berish, mehr-muhabbat va ezgulikni hayotning asosiy tamoyillari sifatida ta’riflaydi. Bu g‘oyalar yosh avlod tarbiyasida katta o‘rin tutadi.

Umuman olganda, "Qutadg'u bilig" asari o‘zining chuqur ma’naviy mazmuni, boy falsafasi va o‘g‘itlari bilan har bir avlod uchun ahamiyatli bo‘lib, jamiyatni yanada barkamol qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, asarning janr jihatdan murakkabligi deyarli barcha tadqiqotlarda e’tirof etilgan. Ushbu asar mazmuni, tili, uslubidan kelib chiqib aytish

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

mumkin, ulug‘ shoir qadimgi turk yozma adabiyoti, turkiy xalqlar og‘zaki ijodini ham yaxshi bilgan, shu muhitda tarbiya topgan. “Qutadg‘u bilig” asarida mashhur ijodkorning odob – axloq, o‘g‘il – qiz tarbiyasi, halollik, chin insoniylik, kishilikning ulug‘ xislatlari, kishining ma’naviy dunyosi, komil inson haqidagi teran falsafiy qarashlari badiiy shaklda bayon etilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib Qutadg‘u bilig Toshkent Fan 1972
2. H.D.Abdullayev O‘zbek adabiyoti tarixi O‘quv-uslubiy qo‘llanma Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2019 81-82-b
3. Z.Abdisodiqova “Qutadg‘u bilig”dostonining manbalari va uning o‘rganilishi Academic Research in Educational Sciences ISSN: 2181-1385 2023 611-b